

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OCHILOV SHODIQL SHOMURODOVICH

**YER KADASTRI ISHLARINI SAMARALI YURITISHDA MONITORING
KARTALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya

GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Geografiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on
geographical sciences**

Ochilov Shodiqul Shomurodovich

Yer kadastrı ishlarini samarali yuritishda monitoring kartalaridan foydalanishni
takomillashtirish3

Очиллов Шодикул Шомуродович

Совершенствование методики использования мониторинговых карт в
эффективной организации работ по земельному кадастру21

Ochilov Shodiqul Shomurodovich

Improving the methodology for using monitoring maps in the efficient
management of land cadastre activities39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

OCHILOV SHODIQL SHOMURODOVICH

**YER KADASTRI ISHLARINI SAMARALI YURITISHDA MONITORING
KARTALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya

GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Gr459 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.nuu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Eshkabul Yuldashovich

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sultanov Murodjon Qilichovich

geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Xakimova Kamolatxon Raximjonovna

geografiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 raqamli Ilmiy Kengash asosidagi bir martalik Ilmiy Kengashning 2026-yil 8-sentabr soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21; 246-02-24. e-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru. (O'zbekiston Milliy universiteti, Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 177 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko'chasi, 4 uy. Tel.: (+99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 28 - avgust kuni tarqatildi
(2026-yil 7-avgustdagi 85-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.M.Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik

Ilmiy Kengash raisi g.f.d., professor

M.Avezov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik

Ilmiy Kengash ilmiy kotibi g.f.f.d., (PhD), dotsent

Z.N.Tojiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik

Ilmiy Kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi g.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda urbanizatsiya, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining jadallashuvi, suv tanqisligi va iqlim o'zgarishi ta'sirida yerlarning holati, foydalanish turi o'zgarib bormoqda. Bunday sharoitda yer kadastrini ishonchli yuritish uchun fazoviy-vaqt o'zgarishlarini aks ettiruvchi monitoring axboroti bilan muntazam yangilash muammolarini keltirib chiqarmoqda. Ushbu muammolarni oldini olish yuzasidan xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarida "yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga yerishish"¹ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning yechimida yer kadastrini ishlarini monitoring natijalari bilan uzviy bog'lash, yer holatidagi o'zgarishlarni tezkor aniqlash, kartalashtirish va samarali boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, yerdan foydalanishda yer uchastkasining geofazoviy, huquqiy, geometrik, iqtisodiy va tabiiy holati haqidagi ma'lumotlarni o'zaro integratsiya qilish va muvofiqlashtirish, doimiy va tezkor monitoringda masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu borada, yer kadastrini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofadan zondlash materiallari va geodezik o'lchashlarni yagona geoma'lumotlar bazasida birlashtirish, yer boshqaruvi uchun milliy va hududiy ma'lumotlar tizimlarini integratsiyalash, monitoring kartalarini standart mezonlar asosida tuzish, yer qoplami va yerdan foydalanishdagi o'zgarishlarni yagona tasnif va davriy yangilanish asosida avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash hamda natijalarni web-kartalar orqali taqdim etishga qaratilgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi.

Respublikamizda yer hisobini raqamlashtirish, davlat kadastrlari ma'lumotlarining aniqligini oshirish hamda fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda va sezilarli ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida "yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish jarayonlarini takomillashtirish, yer resurslarining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamli shaklda jamlash hamda milliy hisobotlarni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tayyorlash"² vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish jarayonlarini takomillashtirish, yer resurslarining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni raqamli shaklda jamlash hamda milliy hisobotlarni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tayyorlash vazifalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Barqaror rivojlanish maqsadi 11.3.1-vazifa. <https://sdgs.un.org/goals/goal15>; UNCCD. Global Land Outlook 2: Land Restoration for Recovery and Resilience. Bonn, 2022. <https://www.unccd.int/resources/global-land-outlook/global-land-outlook-2nd-edition> (murojaat sanasi: 22.07.2026).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-sentabrdagi PF-6061-son “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2026-yil 24-apreldagi PF-68-son “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining yerdan foydalanishdagi mustaqilligini ta‘minlashga qaratilgan navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-oktabrdagi 578-son “Yer resurslarining holati bo‘yicha milliy hisobotni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V – “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yer kadastr, yer ma‘muriyatchiligi, yer monitoringi, geoinformatsion kartografiya va masofadan zondlashning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik va respublikamiz olimlari tomonidan o‘rganilgan. Xorijlik mutaxassis olimlar P.Dale, J.McLaughlin, I.Williamson, S.Enemark, J.Wallace, A.Rajabifard, C.Lemmen, R.Bennett, R.Tomlinson, M.F.Goodchild va I.L.McHarg tadqiqotlarida yoritilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida yer kadastr va monitoringi, yer tuzish, tuproq holatini baholash va mavzuli kartalashtirish masalalari S.N.Volkov, A.A.Varlamov, V.V.Vershinin, D.A.Shapovalov, F.I.Kozlovskiy, N.A.Pronko, S.V.Lukin, A.V.Lebedev, A.P.Sizov, A.V.Postnikov va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Mazkur ishlarda yer uchastkalarining huquqiy va geometrik tavsiflarini yagona axborot muhitida yuritish, kadastr tizimlarining o‘zaro ishlashi, fazoviy ma‘lumotlar sifatini boshqarish, yer qoplam va yerdan foydalanishdagi o‘zgarishlarni kartografik aks ettirish hamda qaror qabul qilishni geofazoviy ma‘lumot bilan ta‘minlashga oid ilmiy qarashlar shakllantirilgan.

Respublikamizda yer monitoringi, yer tuzish va kartalashtirish masalalari A.A.Rafiqov, T.M.Mirzaliyev, R.A.Turayev, E.Y.Safarov, B.Y.Maxsudov, J.S.Qoraboyev, P.R.Reymov, V.A.Rafiqov, I.M.Musayev, S.Avezbayev, A.R.Babajanov, Q.Raxmanov, S.A.Avezov, Sh.M.Prenov, K.K.Bekanov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida yer kadastr ma‘lumotlari, masofadan zondlash materiallari, GNSS va uchuvchisiz uchish apparatlaridan olingan axborotlarni yagona geoma‘lumotlar bazasida uyg‘unlashtirish; monitoring kartalarini maqsadi, mazmuni, masshtabi, yangilanish davriyligi, ko‘rsatkichlari va axborot manbalariga ko‘ra tizimlashtirish; turli davrlarga oid ma‘lumotlar asosida yer holatidagi fazoviy-vaqt o‘zgarishlarini aniqlash masalalari kompleks holda yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur dissertatsiya shu masalani tadqiq etishga bag‘ishlanganligi bilan yuqoridagilardan farq qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqotlar rejasining xalqaro "Eurasia-Pacific Uninet" (EPU) hamkorlik tarmoq dasturi doirasidagi "Markaziy Osiyo geofazoviy axborot almashuv platformasi" mavzusidagi grant loyihasi (2025–2026-yillar) hamda "Zamonaviy geodezik asbob va uskunalardan foydalanib topografik-geodezik ishlarni bajarish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasi (2025-yil) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi geografik axborot tizimlari, masofadan zondlash va zamonaviy geodezik o'lchash ma'lumotlarini integratsiyalash asosida yer kadastri ishlarida monitoring kartalarini yaratish, yangilash va ulardan foydalanish uslubini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yer kadastri va yer monitoringining kartografik ta'minotiga oid nazariy-uslubiy yondashuvlar, xalqaro tajriba va normativ-huquqiy talablarni tahlil qilish hamda monitoring kartalarining integratsiyalashgan tasnifini ishlab chiqish;

Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlariga oid kadastr ma'lumotlari, masofadan zondlash materiallari, GNSS va uchuvchisiz uchish apparatlaridan olingan axborotlarni yagona geoma'lumotlar bazasida birlashtirish hamda yer holatidagi o'zgarishlarni aniqlash metodikasini takomillashtirish;

ArcGIS Pro dasturining ModelBuilder muhiti asosida monitoring va kadastr kartalarini tayyorlash, tekshirish hamda yangilash jarayonlarini avtomatlashtiruvchi geoprotsessing modelini ishlab chiqish;

ArcGIS Online platformasi asosida sug'oriladigan yerlar monitoringi natijalarini interaktiv ko'rish, taqqoslash va muntazam yangilash imkonini beruvchi web-kartalar tizimini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlar hamda ular bo'yicha yer kadastri va monitoring jarayonlarida shakllanadigan geofazoviy ma'lumotlar majmuasi olingan.

Tadqiqotning predmeti yer kadastri ishlarini monitoring kartalari bilan ta'minlashda geodezik o'lchash, geografik axborot tizimlari, masofadan zondlash, avtomatlashtirilgan kartografik modellashtirish va web-kartalashtirish texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-uslubiy masalalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida tizimli va qiyosiy tahlil, dala tadqiqoti, geodezik o'lchash, kartografik, masofadan zondlash, matematik va kartografik modellashtirish, statistik tahlil, geoinformatsion va fazoviy tahlil, kartometrik baholash hamda web-kartalashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer kadastri ishlarida foydalaniladigan monitoring kartalarining maqsadi, mazmuni, masshtabi, yangilanish davriyligi, ko'rsatkichlari va axborot manbalariga asoslangan integratsiyalashgan tasnifi ishlab chiqilgan;

Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlariga oid kadastr, masofadan zondlash, GNSS va uchuvchisiz uchish apparatlari ma'lumotlarini yagona geoma'lumotlar bazasida birlashtirish asosida yer holatidagi fazoviy-vaqt o'zgarishlarini aniqlash metodikasi takomillashtirilgan;

ArcGIS Pro dasturining ModelBuilder muhiti asosida ma'lumotlarni tekshirish, fazoviy tahlil qilish, kartografik qatlamlarni shakllantirish hamda monitoring kartalarini tayyorlash va yangilash bosqichlarini avtomatlashtiruvchi geoprotsessing modeli ishlab chiqilgan;

ArcGIS Online platformasi asosida Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlarining monitoring natijalarini interaktiv ko'rish, taqqoslash, foydalanuvchi vakolatiga muvofiq taqdim etish va muntazam yangilashga mo'ljallangan web-kartalar tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlariga oid kadastr, masofadan zondlash, GNSS va dala o'lchov ma'lumotlarini saqlash, yangilash, tekshirish va tahlil qilishga moslashtirilgan yagona geoma'lumotlar bazasi ishlab chiqilgan;

Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlarining yer kadastr ishlarida foydalanishga mo'ljallangan monitoring interaktiv web-kartalar yaratilgan;

Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlari monitoring kartalarini yangilash uchun kartografik asos yaratilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining ma'lumotlari, dala geodezik o'lchovlari, sun'iy yo'ldosh tasvirlari hamda uchuvchisiz uchish apparatlaridan olingan materiallardan foydalanilganligi bilan asoslanadi. Ishlab chiqilgan monitoring kartalari, algoritmlar, web-kartalar, xulosa taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yer kadastr va yer monitoringiga oid turli manbalardan olingan geofazoviy ma'lumotlarni yagona bazaga integratsiya qilish, yer kadastr va yer monitoring kartalarini tasniflash mezonlarini tizimlashtirish hamda ularni o'zaro bog'liq holda kartalashtirish takomillashtirilganligi, olingan natijalar davlat yer kadastr nazariyasini yangi empirik ma'lumotlar va metodologik yondashuvlar bilan boyitishga xizmat qilish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati monitoring kartalarini yer kadastr vazifalari bilan bog'lash, yer holatidagi o'zgarishlarni qayd etish, baholash va kartografik ifodalashda, ishlab chiqilgan geoma'lumotlar bazasi, monitoring kartalari seriyasi, ModelBuilder geoprotsessing modeli va web-kartalar tizimidan sug'oriladigan yerlarning holatini baholash, yer konturlaridagi o'zgarishlarni aniqlash, kadastr ma'lumotlarini yangilash va kartalarni tayyorlashdagi takrorlanuvchi amallarni qisqartirishda foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yer kadastr ishlarini samarali yuritishda monitoring kartalaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

zamonaviy geodezik asboblardan hamda uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) yordamida yer kadastr ma'lumotlarini yig'ish va ularni yagona geoma'lumotlar bazasiga aniq, tizimli va operativ tarzda integratsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy yechimlar Kadastr agentligi amaliyotida yer kadastr axborotlarini shakllantirish va yangilash jarayonlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 26-dekabrda 05/14652-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kadastr ma'lumotlarining aniqligi, to'liqligi va ishonchliligini oshirishga imkon bergan;

ArcGIS Pro dasturining ModelBuilder muhiti asosida ishlab chiqilgan yer kadastr kartalarini avtomatlashtirilgan holda yaratish algoritmlari Kadastr agentligi tizimida Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlariga oid kadastr kartalarini tayyorlash jarayonlarida qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 26-dekabrda 05/14652-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kadastr kartalarini tuzish jarayonining mehnat sig'imi kamaytirilib, kartalashtirish ishlarining tezkorligi va sifati yaxshilashga imkon yaratilgan;

geografik axborot tizimlari va masofadan zondlash texnologiyalari asosida takomillashtirilgan yer monitoringi usullari Kadastr agentligi amaliyotida Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlarining holatini baholash va nazorat qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 26-dekabrda 05/14652-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sug'oriladigan yerlarning meliorativ va agroekologik holatini aniqlash ko'rsatkichi oshirilib, monitoring natijalarining ishonchliligi ta'minlangan;

ArcGIS Online platformasi asosida ishlab chiqilgan Toshkent viloyati tadqiqot hududining sug'oriladigan yerlariga oid foydalanuvchilar uchun qulay, interaktiv, ochiq va doimiy yangilanib boriladigan raqamli web-kartalar tizimi Kadastr agentligi mutaxassislari faoliyatida yer kadastr va yer monitoringi ishlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Urbanizatsiya va uy-joy bozorini barqaror rivojlantirish milliy qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2025-yil 26-dekabrda 05/14652-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yer resurslari to'g'risida tezkor, vizual va tahliliy geoma'lumotlar bilan ta'minlash imkoniyati yaratilib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 12 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 3 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 139 sahifadan iborat bo‘lib, shundan matn qismi 119 bet. Ishda 9 ta karta, 23 ta rasm, 11 ta jadval, ilovada 2 ta jadval va 7 ta karta keltirilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti va usullari belgilangan, tadqiqotning respublikada fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslanganligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib beradi, natijalarni amalga oshirish va ishning aprotatsiyasi, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi haqida qisqacha ma’lumot beradi.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy geoaxborot tizimi va masofadan zondlash texnologiyalari asosida yer kadastr kartalarini tuzishning nazariy va uslubiy jihatlarini”** deb nomlangan birinchi bobida, Yer monitoringi kartalari va ularning yer kadastr tizimini takomillashtirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati tadqiqot doirasida o‘rganilib, ularning Yer kadastr va monitoring tizimlarining huquqiy asoslari hamda shakllanish dinamikasi ahamiyati va zarurligi bayon qilingan. Yer monitoringi natijalari kartografik shaklda aks ettirilishi kadastr ma’lumotlarining to‘liqligi va aniqligini ta’minlaydi, yer huquqiy munosabatlarini tartibga solish, baholash va tasniflash jarayonlarida muhim axborot manbasi hisoblanadi. Zamonaviy geoinformatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi esa monitoring kartalarini tezkor yangilash, fazoviy tahlillarni kuchaytirish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

So‘nggi yillarda yer resurslaridan foydalanish intensivligining ortishi, antropogen yuklamaning kuchayishi va ekologik muammolarning murakkablashuvi yer monitoringi kartalarini tuzishga bo‘lgan talabni keskin oshirdi. Xorijiy tajribada yer monitoringi kartalarini tuzish jarayoni hozirda faqat yer holatini tasvirlash bilan cheklanmay, balki yer resurslarini boshqarish, rejalashtirish va prognozlashda muhim axborot manbai sifatida qaralmoqda. Shu sababli zamonaviy monitoring kartalari “ma’lumot - tahlil - qaror” konseptual zanjiri asosida shakllantiriladi. Ushbu yondashuv monitoring kartalarining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirib, ularni boshqaruv qarorlarini qabul qilishda faol qo‘llash imkonini beradi.

2021-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan davr O‘zbekiston Respublikasida yer kadastr va monitoring tizimlarining zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida baholanadi. Ushbu bosqichda yaratilgan huquqiy, tashkiliy va axborotli asoslar yer resurslarini boshqarishda geoaxborot texnologiyalarini keng joriy etish, raqamli

monitoring tizimlarini rivojlantirish va yerlardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.



1-rasm. 1991-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida yer kadastri, yer monitoringi va yerlardan samarali foydalanish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarning shakllanish dinamikasi

Yuqoridagi 1-rasmida 1991-2025-yillar davomida yer kadastri, yer monitoringi hamda yerlardan samarali foydalanishga oid normativ-huquqiy hujjatlar sonining bosqichma-bosqich o‘sish dinamikasi aks ettirilgan. Grafikda 1991-2000-yillarda ushbu sohalarda qabul qilingan hujjatlar soni nisbatan kam bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yillardan boshlab institutsional rivojlanish jarayoni kuzatiladi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda yer kadastri va monitoring tizimlarini raqamlashtirish, shuningdek, yerlardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar sonining keskin ortgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu holat yer resurslarini boshqarishda zamonaviy monitoringga va raqamli texnologiyalarga asoslangan yondashuvlarning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot ishining **“Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning hozirgi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida Toshkent viloyati yer fondi va qishloq xo‘jalik yer turlari tahlili, sug‘oriladigan hududlarda tarqalgan asosiy tuproqlar tavsifi va ArcGIS Pro dasturi asosida Toshkent viloyati yer kadastri geoma'lumotlar bazasini yaratish jarayonlari o‘rganilib, tahlil qilingan.

Toshkent viloyati yer kadastri geoma'lumotlar bazasini yaratishda dastlabki bosqich sifatida ma'lumotlar manbalari aniqlandi. Ular orasida aerokosmik suratlar, topografik kartalar, GPS o‘lchov natijalari, kadastr hujjatlari va statistik ma'lumotlar asosiy manbalar sifatida olindi. Ushbu ma'lumotlar ArcGIS Pro muhitida yagona koordinata tizimiga keltirilib, keyingi tahlil va modellashtirish ishlari uchun tayyorlandi (2-rasm).




2-rasm. Yer kadastri geoma'lumotlar bazasini yaratishning texnologik sxemasi (Muallif tamonidan qayta ishlangan)

Yer kadastri geoma'lumotlar bazasini yaratishning texnologik sxemasida keltirilganidek, ikkinchi bosqichda Toshkent viloyati yer kadastri geoma'lumotlar bazasining tuzilmasi va konseptual modeli ishlab chiqildi. Unga ko'ra, yer kadastri tizimida geoma'lumotlar bazasining to'g'ri va puxta loyihalaniishi ma'lumotlarning aniqligi, yaxlitligi hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi.

Shu sababli Toshkent viloyati yer kadastri geoma'lumotlar bazasini yaratishda konseptual modellashtirish bosqichiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu bosqichda kadastr tizimida aks ettirilishi lozim bo'lgan obyektlar, ularning o'zaro bog'liqligi hamda atribut jadval tarkibi ilmiy-uslubiy asosda belgilandi.

Dissertatsiyaning **“Yer monitoringi kartalarini tuzishda geoaxborot texnologiyalari va masofadan zondlash usullarini qo'llash”** deb nomlangan uchinchi bobida yer monitoringi kartalarini tuzishda zamonaviy geodezik asboblardan va dronlardan foydalanish, yer monitoringi kartalarini tuzishda masofadan zondlash texnologiyalarini qo'llash va qishloq xo'jaligi yerlarini monitoringi kartalarining integratsiyalashgan tasnifini ishlab chiqish usullari bayon qilingan.

Mazkur tadqiqot davomida yer maydonlari real vaqt rejimida kinematika (RTK) usulidan foydalanilgan holda Toshkent viloyatining Parkent tumani Navbahor va Bekobod viloyati Dalvarzin massivlari kontur chegaralarini monitoringi olib borildi. Mavjud qishloq xo'jaligi kartalari hamda sun'iy yo'ldoshdan olingan suratlarga nisbatan GNSS (SOUTH G9)da aniqlangan koordinatalar solishtirildi. Dala o'lchashlaridan namunalar 3-rasmda keltrilgan.



3-rasm. Tajriba-sinov uchastkalarida Toshkent viloyatining Parkent tumani Navbahor massivi kontur chegaralarini monitoringi jarayoni

Tajriba-sinov uchaskasi sifatida tanlab olingan Toshkent viloyatining Parkent tumani Navbahor massivi maydonida qishloq ho‘jaligi ekinlari maydonlari monitoringi natijasida olingan koordinatalar va ularning aniqliklari quyidagi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Toshkent viloyatining Parkent tumani Navbahor massivi yerlari monitoringi natijasida olingan koordinatalar va ularning aniqliklari

GNSS Baza

Sana	Vaqt	B	L	H	X	Y	Z
09-08-2025	10:00:57	41.14546174	69.34187839	518.624	1676341.030	4500783.906	4183554.310

GNSS Rover

№	X	Y	H	O‘rta kvadrat- ik xato m_s planli, m	O‘rta kvadrat- ik xato m_H nisbiy balandlik, m
1.1	4566483.147	547903.636	515.444	0.01	0.02
1.2	4566541.026	547911.477	509.134	0.01	0.03
1.3	4566595.093	547867.541	505.699	0.01	0.02
1.4	4566531.294	547790.504	500.074	0.01	0.03
1.5	4566528.852	547785.664	500.092	0.01	0.02
1.6	4566483.896	547737.691	504.517	0.01	0.02
1.7	4566478.465	547735.389	505.108	0.01	0.03
1.8	4566475.604	547739.474	505.452	0.01	0.02
1.9	4566431.784	547770.035	504.751	0.02	0.03
1.10	4566392.206	547817.913	507.902	0.01	0.03
1.11	4566391.229	547821.961	508.297	0.01	0.03
1.12	4566364.161	547872.484	511.678	0.02	0.03
1.13	4566364.534	547875.235	511.832	0.02	0.03
1.14	4566371.756	547873.662	511.643	0.01	0.02
1.15	4566603.726	547867.695	505.437	0.01	0.02
1.16	4566648.112	547844.384	502.432	0.01	0.02
1.17	4566657.412	547849.040	501.245	0.01	0.02

1.18	4566698.812	547928.525	492.843	0.01	0.02
1.19	4566705.374	547928.255	492.327	0.02	0.03
1.20	4566707.102	547933.314	492.157	0.01	0.02
.....					

Yuqoridagi jadval Toshkent viloyati Parkent tumani Navbahor massivi hududida olib borilgan GNSS kuzatuvlari natijasida olingan koordinatalar va ularning aniqlik ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Bunday ma'lumotlar odatda yer monitoringi, kadastr kartalarini aniqligini oshirish, geodezik tarmoqlarni barpo etish va fazoviy ma'lumotlar bazasini yangilash jarayonlarida qo'llaniladi.

GNSS kuzatuvlarining aniqligi o'rta kvadratik xato orqali baholanadi:

$$m_s = \sqrt{\frac{\sum(v_x^2 + v_y^2)}{n}}$$

Balandlik o'rnini esa o'rta kvadratik xatosi:

$$m_H = \sqrt{\frac{\sum v_H^2}{n}}$$

Jadvalda ko'rinishicha:

$$m_s=0.01-0.02 \text{ m}$$

$$m_H=0.02-0.03 \text{ m}$$

ya'ni **1-3 sm** aniqlik bilan nuqtalarning planli hamda balandlik o'rnini aniqlangan va bu RTK usulida GNSS o'lchovlari uchun juda yuqori aniqlik bo'lib, ko'rsatkichlar yer kadastr talablari uchun yuqori aniqlik darajasini ta'minlashini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Yer monitoringi kartalarini masofadan zondlash va geoinformatsion texnologiyalar asosida tuzish natijasida yer resurslarining holati, ulardan foydalanish samaradorligi hamda degradatsiya jarayonlari bo'yicha kompleks fazoviy ma'lumotlar olindi. Mazkur monitoring kartalari yer kadastr ishlarini samarali yuritish, yer resurslarini boshqarish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, har bir monitoring kartalari guruhi hamda tarkibi bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi (4-rasm).

Qishloq xo'jaligi yerlarini monitoring qilish yer resurslarining holati va ulardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan ko'p bosqichli kartografik jarayon sifatida qaralib, tadqiqot davomida yer monitoringi kartalarining ilmiy asoslangan klassifikatsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu klassifikatsiya yer monitoringi kartalarini 5 ta asosiy yo'nalish bo'yicha guruhlashni nazarda tutadi.



4-rasm. 5 ta yo'nalish bo'yicha qishloq xo'jaligi monitoring kartalarining tasnifi

Birinchi yo'nalish - yer resurslari holatini baholovchi monitoring kartalari bo'lib, ular agrokimyoviy, agrofizik, gidrogeologik, tuproq va meliorativ holatni aks ettiruvchi mavzuli kartalarni o'z ichiga oladi. Mazkur kartalar qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, agrotexnik tadbirlarni rejalashtirish va yer unumdorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.


Ikkinchi yo'nalish - yer degradatsiyasi jarayonlarini monitoring qiluvchi kartalardan iborat bo'lib, ularda eroziya xavfi, sho'rlanish, cho'llanish, tuproq gipslashuv va meliorativ holatning yomonlashuvi jarayonlari fazoviy jihatdan baholanadi. Bu guruh kartalari sug'oriladigan yerlarning barqarorligini ta'minlash va degradatsiya jarayonlarini erta aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi yo'nalish - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish ko'rsatkichlari monitoring kartalarini qamrab oladi. Ushbu guruhga hosildorlik kartalari, ekin maydonlarining tuzilishi, vegetatsiya indekslari (xususan, NDVI) va agroiqtisodiy ko'rsatkichlar kiradi. Mazkur kartalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va hosildorlikni prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi yo'nalish - ekologik xavfsizlik va bioresurslar monitoringi kartalari bo'lib, ularda pestitsid va nitratlar bilan ifloslanish, yerlarning ekologik barqarorligi, biomassa va biologik xilma-xillik ko'rsatkichlari baholanadi. Bu kartalar ekologik muvozanatni saqlash va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan.

Beshinchi yo'nalish esa yer kadastri va huquqiy monitoring kartalarini o'z ichiga oladi. Ushbu kartalar yer egalari va foydalanish shakllari, yer uchastkalari

chegaralari, yer toifalari va yer turlarini aks ettirib, monitoring natijalarini bevosita kadastr axborotlari bilan integratsiya qilish imkonini beradi.



5-rasm. Tuzilgan qishloq xo'jaligi yer monitoring kartalari

Yer resurslari holatini baholovchi monitoring kartalari yerlarning tabiiy, meliorativ va ishlab chiqarish xususiyatlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot doirasida agrokimyoviy, agrofizik, gidrogeologik, tuproq hamda meliorativ holat kartalari masofadan zondlash va geoinformatsion texnologiyalar


asosida tuzilib, yer resurslarining hozirgi holati va hududiy farqlari aniqlandi. Olingan natijalar yer kadastrini ishlarini samarali yuritish va yerlardan oqilona foydalanish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Dissertatsiyaning **“Yer monitoringi kartalarini tuzishni takomillashtirish masalalari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, ArcGIS Pro dasturi asosida yer monitoring kartalarini tuzish jarayonini avtomatlashtirishga va Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlarining web-monitoring kartalarini yaratishga bag'ishlangan. Mazkur tadqiqot doirasida ArcGIS Pro dasturining ModelBuilder ilovasi asosida karta tuzish jarayonini avtomatlashtirish orqali yer monitoring kartalarini tuzish uslubi takomillashtirilgan.

Yer monitoringi kartalarini tuzish jarayoni amaliyotda ko'p bosqichli bo'lib, masofadan zondlash ma'lumotlarini qayta ishlash, fazoviy tahlil ishlarni bajarish va natijalarni yangilab borish jarayonlari asosan qo'lda amalga oshiriladi. Bu holat vaqt va mehnat sarfining ortishiga, shuningdek subyektiv xatoliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida dissertatsiyada ArcGIS Pro dasturining ModelBuilder muhiti asosida yer monitoring kartalarini tuzish jarayonini avtomatlashtirishga yo'naltirilgan takomillashtirilgan uslub ishlab chiqildi. Taklif etilgan avtomatlashtirilgan texnologik yondashuvda dastlab boshlang'ich ma'lumotlar sifatida kosmik suratlar, aerofoto tasvirlar va uchuvchisiz uchish apparatlari (dronlar) orqali olingan tasvirlar ArcGIS Pro muhitiga yuklanadi. Ushbu ma'lumotlar geometrik tuzatish, radiometrik va spektral normallashtirish bosqichlaridan o'tkazilib, yagona koordinata tizimiga keltiriladi. Natijada tahlil uchun tayyor bo'lgan yuqori aniqlikdagi fazoviy ma'lumotlar shakllantirildi. Keyingi bosqichda ModelBuilder yordamida fazoviy tahlil amallari avtomatlashtirilgan holda bajariladi. Jumladan, yer uchastkalari va infratuzilma obyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash maqsadida fazoviy qoplash, klassifikatsiya va zonal tahlil, buffer va yaqinlik tahlili, shuningdek relyef ko'rsatkichlari (nishablik va balandlik) asosida cheklovchi omillarni hisobga olish jarayonlari yagona algoritmik zanjirga birlashtirilgan. 6-rasmda keltirilgan ModelBuilder algoritmik modelida “Select Layer by Attribute”, “Buffer”, “Erase”, “Overlay”, “Slope” va “Elevation” kabi GAT funksiyalari ketma-ket va mantiqiy bog'langan holda ishlaydi. Bu esa monitoring kartalarini yaratishda takrorlanuvchi operatsiyalarni avtomatik bajarish, foydalanuvchi aralashuvini minimallashtirish va natijalarni barqaror sifatda olish imkonini beradi.


Taklif etilgan modelning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda monitoring kartalarining aniqligi va ishonchliligini baholash mexanizmi ham avtomatlashtirilgan. Boshlang'ich ma'lumotlar yangilanganda ModelBuilder algoritmi avtomatik ishga tushadi va monitoring kartalari qayta hisoblanadi. Natijada yer monitoringi kartalari doimiy ravishda yangilanib boruvchi dinamik kartografik mahsulotga aylanadi. Shunday qilib, ArcGIS Pro ModelBuilder muhiti asosida ishlab chiqilgan ushbu avtomatlashtirilgan uslub yer kadastrini tuzish jarayonini tezlashtirish, subyektiv xatoliklarni kamaytirish va fazoviy tahlil natijalarining aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv yer kadastrini

samarali yuritish, monitoring kartalarini muntazam yangilash va boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish uchun takomillashtirilgan ilmiy-amaliy yechim hisoblanadi.



6-rasm. Yer monitoring kartasini yaratishni avtomatlashtirish uchun ModelBuilder algoritmik modeli

Shuningdek, tadqiqot jarayonida ArcGIS Online platformasi asosida Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlariga oid ma'lumotlarni aks ettiruvchi interaktiv, ochiq va doimiy yangilanib boruvchi web-monitoring kartalari tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim sun'iy yo'ldosh va dron tasvirlari, geodezik o'lchovlar, kadastr hamda statistik ma'lumotlarni yagona raqamli muhitda integratsiya qilishga asoslangan (7-rasm).



7-rasm. Toshkent viloyati sug'oriladigan yerlariga oid ma'lumotlarni aks ettiruvchi interaktiv web-monitoring kartasi

Ishlab chiqilgan web-karta tizimi sun'iy yo'ldosh tasvirlari, dron orqali olingan yuqori aniqlikdagi aerofotosuratlar, geodezik o'lchash natijalari, davlat kadastri ma'lumotlari hamda statistik ko'rsatkichlarni o'zaro bog'langan holda aks ettiradi. Mazkur integratsiya natijasida sug'oriladigan yerlarning holati, chegaralari, maydon ko'rsatkichlari, ekin turlari va ularning dinamik o'zgarishlarini real vaqtga yaqin rejimda monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

Tizim interfeysi foydalanuvchi uchun qulay tarzda ishlab chiqilgan bo'lib, unda qatlamlar orqali yer uchastkalari, konturlar, infratuzilma obyektlari hamda boshqa mavzuli ma'lumotlar vizuallashtiriladi. Har bir yer uchastkasi bo'yicha atribut jadvaliga ulangan holda maydon (gektar), ekin turi, sug'orish holati, agrotexnik ko'rsatkichlar kabi muhim parametrlar interaktiv oynada ko'rsatiladi. Bu esa foydalanuvchilarga tezkor tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Tizimda masshtabga bog'liq vizualizatsiya qo'llanilgan bo'lib, yirik masshtablarda yer uchastkalari aniq konturlar bilan, mayda masshtablarda esa umumlashtirilgan ko'rinishda aks ettiriladi. Bu esa kartaning o'qiluvchanligini oshiradi va foydalanuvchiga turli darajadagi tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, web-karta tizimi filtratsiya va tanlash (filter/select) funksiyalari bilan boyitilgan bo'lib, foydalanuvchilar ma'lum hudud, ekin turi yoki boshqa parametrlar bo'yicha tezkor saralashni amalga oshirishi mumkin. Natijada hududiy tahlil, resurslarni baholash va monitoring jarayonlari sezilarli darajada avtomatlashtirildi.

Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundan iboratki, sug'oriladigan yerlarni monitoring qilish jarayoni an'anaviy statik kartografik usullardan farqli ravishda dinamik, interaktiv va real vaqtga yaqin geoma'lumotlar asosida amalga oshirilmoqda. Bu esa yer resurslarini boshqarishda aniqlikni oshiradi, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytiradi va qaror qabul qilish jarayonining

samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Natijada ishlab chiqilgan web-monitoring kartalari tizimi nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki amaliyotda – qishloq xo‘jaligini rejalashtirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, sug‘orish tizimlarini boshqarish hamda kadastr ishlarini takomillashtirishda muhim geoinformatsion platforma sifatida xizmat qilishi asoslab berildi.

XULOSA

1. Mazkur dissertatsiya ishida yer kadastr ishlarini samarali yuritishda monitoring kartalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari zamonaviy geoinformatsion texnologiyalar, masofadan zondlash usullari hamda raqamli kartografiya yondashuvlari asosida kompleks ilmiy tadqiq etildi. Tadqiqot doirasida yer resurslaridan oqilona foydalanish, ularning holatini muntazam baholash va kadastr ma’lumotlarini yangilab borishda monitoring kartalarining tutgan o’rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

2. Yer monitoringi kartalarini tuzishning nazariy-uslubiy asoslari, yer kadastr tizimidagi roli hamda zamonaviy GAT va masofadan zondlash texnologiyalarining ahamiyati xorij tajribasi asosida tahlil qilindi. Natijada monitoring kartalarining faqat vizual tasvir vositasi emas, balki yer resurslarini boshqarishda qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim analitik instrument ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Yer kadastr va monitoring tizimlarining rivojlanish dinamikasi huquqiy-me’yoriy hujjatlar tahlili orqali bosqichma-bosqich yoritildi.

3. Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishning hozirgi holati chuqur tahlil qilinib, yer fondi tarkibi, sug‘oriladigan yerlar, tuproq turlari va ularning meliorativ holati hududlar kesimida baholandi. ArcGIS Pro dasturi asosida viloyatning yer kadastr geoma’lumotlar bazasi yaratilib, fazoviy va atributiv ma’lumotlarning yagona axborot muhitida integratsiyalashuvi ta’minlandi. Bu esa monitoring kartalarini tuzish uchun ishonchli va tizimli ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini berdi.

4. Yer monitoring kartalarini tuzishda masofadan zondlash va GAT texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida yer resurslari holatini baholovchi, degradatsiya jarayonlarini monitoring qiluvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, ekologik xavfsizlik va bioresurslar hamda yer kadastr va huquqiy holatni aks ettiruvchi monitoring kartalarining integratsiyalashgan tasnifi taklif etildi. Ushbu kartalar orqali yerlarning holatini fazoviy va vaqt qatori asosida tahlil qilish, o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash va prognozlash imkoniyati yaratildi.

5. Yer monitoring kartalarini tuzish jarayonini takomillashtirish masalalari amaliy jihatdan yechildi. ArcGIS Pro dasturining ModelBuilder muhiti asosida monitoring kartalarini avtomatlashtirilgan holda yaratish modeli ishlab chiqildi. Shuningdek, ArcGIS Online platformasi asosida Toshkent viloyati sug‘oriladigan yerlarining web-monitoring kartalari, StoryMaps va Dashboard vositalari orqali interaktiv taqdim etish mexanizmlari ishlab chiqildi. Natijada yer monitoringi va kadastr ma’lumotlarini tezkor, ochiq va vizual shaklda taqdim etuvchi zamonaviy web-kartografik tizim yaratildi.

6. Yer kadastrı va yer monitoringi tizimlarini integratsiyalash, monitoring kartalarini avtomatlashtirish va raqamli platformalar asosida joriy etish yer resurslaridan samarali foydalanish, kadastr ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkonini berishini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va amaliy yechimlar kadastr va monitoring amaliyotida qo'llash uchun tavsiya etildi.

7. Dissertatsiyada olingan ilmiy va amaliy natijalar yer kadastrı ishlarini samarali yuritishda monitoring kartalaridan foydalanishni takomillashtirishga xizmat qiladi hamda yer resurslarini boshqarishda zamonaviy, raqamli va monitoringga asoslangan yondashuvni shakllantirishga muhim hissa qo'shadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ОЧИЛОВ ШОДИКУЛ ШОМУРДОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
МОНИТОРИНГОВЫХ КАРТ В ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ
РАБОТ ПО ЗЕМЕЛЬНОМУ КАДАСТРУ**

11.00.06. – Геодезия. Картография

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ГЕОГРАФИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по географическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2026.1.PhD/Gr459

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Сафаров Эшкабул Юлдашович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Султанов Муроджон Киличович доктор географических наук (DSc), доцент Хакимова Камолатхон Рахимжоновна доктор философии по географии (PhD), доцент.
Ведущая организация:	Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится 8 сентября 2026 г. в 13:00 часов на заседании разового Научного совета при Научном совете DSc.03/2025.27.12.Gr.01.17 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, Ташкент, ул. Университетская дом 4. Тел: (99871) 227-12-24, факс: (99871) 246-53-21; 246-02-24. E-mail: ik-geografiya.nuuz@mail.ru. Факультет географии и геоинформационных систем, Национального университета Узбекистана).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован под номером № 177). (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел. (99871)-246-67-71.

Автореферат диссертации разослан 28 август 2026 г.
(Протокол реестра рассылки № 85 от 7 август 2026 г.)

Ш.М. Шарипов
Председатель Разового Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.г.н., профессор

М.М. Авезов
Ученый секретарь Разового Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.ф.г.н., (PhD), доцент

З.Н. Тожиева
Председатель научного семинара при
разовом Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.г.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях глобальной урбанизации, интенсификации сельскохозяйственного производства, дефицита водных ресурсов и изменения климата во всем мире происходят существенные изменения состояния земель и характера их использования. В этих условиях обеспечение достоверного ведения земельного кадастра требует его регулярного обновления на основе данных мониторинга, отражающих пространственно-временные изменения земельных ресурсов. В целях предотвращения указанных проблем международными организациями, в том числе Организацией Объединённых Наций, в рамках Целей устойчивого развития до 2030 года поставлена задача по «повышению эффективности использования земельных ресурсов». Решение данной задачи требует тесной интеграции ведения земельного кадастра с результатами мониторинга, оперативного выявления изменений состояния земель, их картографирования и разработки эффективных управленческих решений, что определяет высокую актуальность настоящего исследования.

В мировой практике особое внимание уделяется исследованиям, направленным на интеграцию и согласование геопространственной, правовой, геометрической, экономической и природной информации о земельных участках при их использовании, а также на применение технологий дистанционного зондирования Земли и геоинформационных систем для организации непрерывного и оперативного мониторинга. В этой связи важное значение приобретают исследования, ориентированные на внедрение цифровых технологий в систему земельного кадастра, интеграцию материалов дистанционного зондирования и геодезических измерений в единую геоинформационную базу данных, объединение национальных и региональных информационных систем управления земельными ресурсами, разработку мониторинговых карт на основе единых стандартов, автоматизированное выявление изменений земного покрова и землепользования на основе унифицированной классификации и периодического обновления данных, а также представление результатов посредством веб-картографических сервисов.

В Республике Узбекистан последовательно реализуются реформы, направленные на цифровизацию земельного учета, повышение достоверности данных государственных кадастров и развитие Национальной инфраструктуры пространственных данных, что уже приносит значительные положительные результаты. В Указе Президента Республики Узбекистан от 7 сентября 2020 года № ПФ-6061 «О мерах по коренному совершенствованию системы ведения земельного учета и государственных кадастров» определены задачи по совершенствованию процессов ведения земельного учета и государственных кадастров, накоплению сведений о состоянии земельных ресурсов в цифровой форме и подготовке национальных отчетов с использованием современных информационных технологий. В этой связи особую значимость приобретают научные исследования, направленные на совершенствование процессов ведения земельного учета и государственных кадастров, цифровое накопление информации о состоянии земельных ресурсов и укрепление механизмов

подготовки национальной отчетности на основе современных информационных технологий.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени способствует реализации задач, определенных Указом Президента Республики Узбекистан от 7 сентября 2020 года № ПФ-6061 «О мерах по коренному совершенствованию системы ведения земельного учета и государственных кадастров», Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О Стратегии "Узбекистан - 2030"», Указом Президента Республики Узбекистан от 24 апреля 2026 года № ПФ-68 «Об очередных мерах, направленных на обеспечение самостоятельности сельскохозяйственных производителей в использовании земель», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 30 октября 2023 года № 578 «Об утверждении Положения о порядке ведения национального доклада о состоянии земельных ресурсов», а также иных нормативно-правовых актов, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями V — «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды» — развития науки и технологий республики.

Степень изученности проблемы. Теоретико-методологические вопросы земельного кадастра, земельного администрирования, мониторинга земель, геоинформационной картографии и дистанционного зондирования Земли исследованы зарубежными и отечественными учёными. Значительный вклад в развитие данного научного направления внесли зарубежные исследователи P.Dale, J.McLaughlin, I.Williamson, S.Enemark, J.Wallace, A.Rajabifard, C.Lemmen, R.Bennett, R.Tomlinson, M.F.Goodchild и I.L.McHarg.

В странах Содружества Независимых Государств вопросы земельного кадастра и мониторинга, землеустройства, оценки состояния почв и тематического картографирования нашли отражение в трудах С.Н.Волкова, А.А.Варламова, В.В.Вершинина, Д.А.Шаповалова, Ф.И.Козловского, Н.А.Пронько, С.В.Лукина, А.В.Лебедева, А.П.Сизова, А.В.Постникова и других ученых. В этих исследованиях сформированы научные подходы к ведению правовой и геометрической информации о земельных участках в единой информационной среде, обеспечению взаимодействия кадастровых систем, управлению качеством пространственных данных, картографическому отображению изменений земного покрова и землепользования, а также использованию геопропространственной информации для поддержки принятия управленческих решений.

